

Konni Qayta Ishlash Korxonalarida Moliyaviy Hisobning Xalqaro Standartlari Asosida Pul Mablag'larini Hisobini Yuritish

Shodmonov Farrux Isoqul o'g'li

Navoiy Kon Metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati Janubiy kon boshqarmasi Markazlashtirilgan buxgalteriya bosh buxgalter o'rmosari

Bahadirov Alisher Komilovich

Bank Moliya Akademiyasi "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedra dotsenti

Annotation: Kon va konni qayta ishlash korxonalariga moliyaviy hisobning xalqaro standartlari asosida pul mablag'lari hisobini yuritishda korxonaning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini yani ishlash ehtiyojlari aniqlash, pul resurslaridan unumli foydalanish bevosita to'g'ri taqsimlash, pul mablag'lari ekvivalentlarini ishlab topish, tezkor pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Keywords: Kon va konni qayta ishlash korxonalari, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot va tegishli shakllari.

Jahon iqtisodiyotini rivojlanishi, xususan yurtimizda barqaror iqtisodiy rivojlanish jarayonida kon va konni qayta ishlash korxonalarida muhim iqtisodiy tayanch hisoblanadi. Mamlakatimiz jahonda kon sanoati yuqori rivojlangan mamlakatlar qatoridan mustahkam o'rinnegallagan. Hozirga qadar O'zbekistonda hammasi bo'lib 2,7 mingdan ziyod istiqbolli turli foydali qazilma konlari aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral-xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi kundagi iqtisodiy, tehnik-tehnologik o'zgarishlar zamonda konni qayta ishlash korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni kengayishi, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan konlarga yangi ishlab chiqarish metodlarini qo'llash natijasida pul mablag'lar, kapital qo'yilmalar, investitsiyalarga bo'lgan talabning ortishi vujudga kelmoqda. Ayni davrda konni qayta ishlash korxonalarida pul mablag'larini hisobi yuritish juda muhim jarayon hisoblanadi ya'ni pul mablag'larini ishlatilish va taqsimlanishi kelgusidagi ularga bo'lgan talablarni vujud kelishi inobatga olgan holda to'g'ri boshqaruva qarorlarini qabul qilishga bog'liq. Molivaviy hisobning xalqaro standartining „Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot“ tashkilotning operasion, investitsiya va moliyaviy faoliyatining o'z pul mablag'lariga ma'lum bir hisobot davridagi ta'sirini aks etadi va shu davrdagi pul mablag'larining o'zgarishini tushuntiradi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotidan bir nechta tegishli hisobot shakllarini tuzish mumkin: a) Investitsiya va moliyaviy faoliyatdan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot b) Netto-asosda pul mablag'larini harakati to'g'risidagi hisobot c) Pul mablag'larining chet el valyutasidagi harakati to'g'risidagi hisobot d) Favqulotdag'i moddalari bilan bog'liq bo'lgan pul oqimlarining harakati to'g'risidagi hisobot e) Foizlar va divedentlarni to'lash va olish bilan bog'liq pul oqimlari to'g'risidagi hisobot f) Soliqlarni to'lash natijasida pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot g) sho'ba va boshqa kompaniyalarni sotish va sotib olish to'g'risidagi hisobot va tarmoq xususiyatidan kelib chiqib boshqa hisobot shakllarini yuritish mumkin. Qaysi hisobotdan foydalanish korxonaning ixtisosligi va tarmoq faoliyatidan kelib belgilanadi.

1-jadval. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlardidan foydalanish ketma-ketligi¹

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotdagi ma'lumotlardan quyudagilarni aniqlashga yordam beradi	<p>Korxonaning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini ishlab topish qibiliyatini va tashkilot shu kabi pul oqimlarini ishlatalishga ehtiyojini aniqlash.</p> <p>Tashkilotning sof aktivlaridagi o'zgarishlar, uning moliyaviy tuzilishini (likvidligini va to'lov qobiliyatini) va uning o'zgarib turgan sharoit va imkoniyatlariga mostlashish uchun o'z vaqtida pul miqdoriga va pul oqimlariga ta'sir etish qobiliyatini aniqlash.</p> <p>Turli xil tashkilotning operasion faolyatlarini taqqoslash, chunki bu ayni operasion va xo'jalik faolyatining xodisalari uchun xar xil hisoblash usullarini qo'llashni inkor etadi.</p>
---	--

Pul mablag'larini oqib (ko'payishi) kelishi: Savdo va vositachilik maqsadlarida tuziladigan bitimlar bo'yicha pullarning kelib tushishi, maxsulot va xizmatlarni sotishdan, Tovar moddiy zahiralarining kamayishi, patent va avtorlik xuquqidan foydalanganlik , foiz daromadlari, komission yig'imlar va boshqalar kiradi.

Pul mablag'larini oqib (kamayishi) ketishi: Tovarlar va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'lovlar, Tovar moddiy zahiralarining ko'payishi, korxona xodimlariga pullik to'lovlar, operatsion xarajatlar, to'langan foizlar va boshqalar kiradi.

Konni qayta ishslash korxonalarining tarmoqlarning ko'pligi kiritiladigan investitsiyalarning uzoq muddatga mo'ljallanganligi, investitsiyalar hajmining kattaligi, jahon bozori narx kutilmalarining o'zgarib turishi ishlab chiqarish sikliga ta'sir etmay qolmaydi. Konni qayta ishslash korxonalarining boshqaruva rahbarlari tomonidan moliyaviy hisobning xalqaro standartlari asosidagi pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot va ma'lumotlardan unumli foydalanishi kamroq moliyaviy manbalarga bo'lган ehtiyojini ortiradi, moliyaviy mustaqillik darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musayeva, Zamira; Yusupov, Qodirjon (2000-2005). "Ish haqi". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Thompson, E. P. (1967). „Time, Work-Discipline, and Industrial Capitalism“. Past and Present. № 38. 56–97-bet. JSTOR 649749.
3. Dohrn-van Rossum, Gerhard,. History of the hour: Clocks and modern temporal orders, Thomas Dunlap (trans.), Chicago: University of Chicago Press, 1996. ISBN 9780226155104.
4. Ezzamel, Mahmoud (2004-07). „Work Organization in the Middle Kingdom, Ancient Egypt“. Organization. 11-jild, № 4. 497–537-bet. ISSN 1350-5084.

¹ Muallif ishlanmasi